



OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI.

Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik
universiteti o'qituvchisi.

E-mail: j.qudratillayev@tsul.uz

jakhongir.kudratillayev.10@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8278894>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-August 2023 yil

Ma'qullandi: 20-August 2023 yil

Nashr qilindi: 24-August 2023 yil

KEY WORDS

Konstitutsiya ustuvorligi deganda, nimaga nisbatan ustunlik tushuniladi? Nima uchun Konstitutsiya ustuvorligi kerak? O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 81-moddasi misolida yuqoridagi savollarga javob berib o'tilgan

ABSTRACT

Ushbu maqola jurnalistik faoliyatiga asossiz aralashishning huquqiy oqibatlarining huquqiy tahliliga bag'ishlangan. Maqolada shu davrga qadar jurnalistik faoliyatiga asossiz aralashish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun qabul qilinmagani ko'rsatib o'tilgan. Mazkur ijtimoiy munosabatni huquq va qonun analogiyasi orqali tartibga solib bo'lmasligi asoslab berilgan.

Maqola so'ngida jurnalistning muhofazasi alohida tartibda ta'minlanishi kerakligi, shundagina, amalda fuqarolik jamiyatining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan talab – ommaviy axborot vositalari vakillari tomonidan fikr yuritish va uni ifoda etish erkinligining ro'yobiga erishish mumkin degan fikrga kelingan. Mazkur erkinlik har bir shaxsga kafolatlangani, biroq uning jurnalist faoliyatidagi amaliy ro'yobi butun jamiyatning fikr yuritish va uni ifoda etish erkinligi darajasini namoyon etadi degan xulosaga kelingan

Konstitutsiya ustuvorligi deganda, nimaga nisbatan ustunlik tushuniladi? Nima uchun Konstitutsiya ustuvorligi kerak? O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 81-moddasi misolida yuqoridagi savollarga javob berib o'tilgan. Mazkur normaga ko'ra, ommaviy axborot vositalari o'zlari tarqatgan axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar deb, qayd qilingan. "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 15-moddasida esa, qaysi holatlarda jurnalist o'zi tarqatgan axborotning to'g'riligi uchun javobgarlikni intisno qiladigan holatlar sanab o'tilgan. Bunda Konstitutsiyaning ustuvorligi prinsipi ta'minlanishi shart. Chunki qonun va qonunosti hujjatlari Konstitutsiyaga zid bo'lmasligi, aksincha Konstitutsiya asosida va uni ijro qilish uchun qabul qilinadi. Agar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 81-moddasi birinchi qismi quyidagi tarzda talqin qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi: "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Qonunda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasnodir". Maqolada yuqoridagi holatlar asoslantirib

o'tilgan.

Ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi o'rni yuqori. Buni Oliy yuridik kuchga ega, Bosh qomusimiz, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ommaviy axborot vositalari uchun alohida bir bobning ajratilishida ham ko'rishimiz mumkin. Mazkur bob faqatgina bitta modda, 81-moddadan, iborat. Bu esa, Konstitutsiyaning kelajak maqsad, rivojlanishni ko'zlash prinsipidan kelib chiqib qabul qilinganini ko'rsatadi. Ya'ni, Konstitutsiya faqat mavjud ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishni maqsad qilib qolmay, u kelajakdagi vazifalarni ham belgilashi va kelajakdagi vujudga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni ham qamrab olishi kerak.

Ommaviy axborot vositalari bilan bog'liq tartibga solinishi zarur bo'lgan ijtimoiy munosabat jamiyat rivojlanib borgani sayin paydo bo'ladi va ortib boradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida esa, ommaviy axborot vositalari bilan bog'liq munosabatlarni alohida bob sifatida rasmiylashtirilgani ayni muddao.

Ommaviy axborot vositalari va uning faoliyati jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri sanaladi. Shuningdek, jamiyatdagi eng kuchli ta'sir kuchiga ega bo'lgan institut hamdir. Ommaviy axborot vositalari orqali inson ongiga ta'sir qilinadi. U orqali fikrlash, so'z erkinligi; axborotni izlash, olish, tarqatish yoki fikr yuritish va uni ifoda etish erkinliklari amalga oshiriladi. Demak, ommaviy axborot vositalari shaxsning Konstitutsiya bilan mustahkamlangan huquq va erkinliklari bilan bog'liq bo'lib, ularning amalga oshirilishida ham ko'maklashadi.

Ommaviy axborot vositalari vazifalarini ko'radigan bo'lsak, ular:

- alohida tegishli fikrlarni shakllantirish;
- bo'layotgan voqealar to'g'risida ma'lumotlar berib borish;
- ko'p fikrlilik, so'z, fikr erkinligini ta'minlash;
- turli idoralar, siyosiy institutlar manfaatini ifodalaydi;
- fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi;
- demokratik jarayonlarning chuqurlashuviga hissa qo'shadi.¹

Konstitutsiyada ommaviy axborot vositalari qonun asosida faoliyat olib borishi belgilab qo'yilgan bo'lib, bular: "Noshirlik faoliyati to'g'risida", "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida", "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida", "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida" va "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunlar, shuningdek, "Axborotlashtirish to'g'risida", "Reklama to'g'risida", "Davlat sirlarini saqlash to'g'risida"gi qonunlar va boshqa qonunlar.

Ommaviy axborot vositalarining erkinligi, eng avvalo, ularning xodimlari ya'ni, jurnalistlarning erkinligi bilan bog'liq. Jurnalistik faoliyatini erkinligini ta'minlamay turib, ommaviy axborot vositalarining erkinligi haqida gapirishning o'zi noo'rin. "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonun jurnalistlar faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib turadi.

Konstitutsiyaning 81-moddasiga asosan, ommaviy axborot vositalari bergan axborotlari to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar yoki O'zbekiston Respublikasi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunida bu qoida kengaytirilib, "O'zbekiston Respublikasida

¹ Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To'ldirilgan va qayta nashr qilingan ikkinchi nashr. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2020. -187 bet.

ommaviy axborot vositalari erkin bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, ushbu Qonunga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadi.

Ommaviy axborot vositalari axborotni izlash, olish va tarqatish huquqidan foydalanadilar hamda o'zlari e'lon qilayotgan axborotning to'g'riligi va haqqoniyligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tarkibda javobgar bo'ladilar", - deb belgilab qo'yilgan.

Ya'ni axborot tarqatayotgan har bir jurnalist o'zi tarqatgan axborotni to'g'riligi va xolisligi uchun o'zi mas'ulligi qonun bilan belgilanib, mas'uliyat yuklab qo'yilyapti.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida "Turmat", "Haqorat", "Fuqarolarga ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazuvchi ma'lumot tarqatish"ni nazarda tutuvchi ma'lumotlar uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida "Tuhmat", "Haqorat qilish", "Urushni targ'ib qilish", "Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni qo'zg'otish", "Konstitutsiyaviy tuzumga xavf soluvchi ma'lumotlar tarqatish", "Davlat sirlarini oshkor qilish"ni ko'zlovchi ma'lumotlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Ommaviy axborot vositalari xodimlarining majburiyatlari aniq belgilab qo'yilgan bo'lib, javobgarlik masalariga ham oydinlik kiritib o'tilgan.

Biroq ommaviy axborot vositalari yoki jurnalist faoliyatiga asossiz aralashish qonun bilan taqiqlanganligi belgilab qo'yilgani bilan ("Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida" va "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunlar) javobgarlik masalasi ochiq qolgan ya'ni, alohida sanksiya bilan tartibga solinmagan.

2020-yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi muhokamasi rasmiy saytida O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish masalasi muhokamaga qo'yilgan edi. Jumladan, kutilgan o'zgartirishga ko'ra: O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga 197⁵-moddasi sifatida jurnalistlik faoliyatiga aralashish va to'sqinlik qilish uchun javobgarlikni belgilash nazarda tutilgan edi. Ya'ni, jurnalistlik faoliyatiga aralashish va to'sqinlik qilish, jurnalistni axborotni tarqatish yoki tarqatishni rad qilishga majburlash, akkreditatsiya qilishni asossiz ravishda rad etish yoki akkreditatsiyani noo'rin bekor qilish, jurnalistning so'rov bilan murojaat qilish va zarur axborotni olish huquqini buzish, jurnalistning materiallari va zarur texnika vositalarini g'ayriqonuniy ravishda olib qo'yish uchun sanksiya bilan javobgarlik belgilanishi ko'zda tutilgan edi. Ammo bu loyihaligicha qolib ketdi va qonunchilikda o'z aksini topmadi.

Shu o'rinda savol tug'iladi: Ommaviy axborot vositalari yoki jurnalistik faoliyatiga asossiz aralashish umumiy qonunchilikka ko'ra javobgarlikka tortishning iloji yo'qmi? Huquq va qonun analogiyasini qo'llab bo'lmaydimi? Alohida javobgarlik sifatida belgilab, sanksiya bilan jazo belgilash shartmi?

Jurnalistlarning xalqaro va milliy maydondagi huquqiy himoyasini ta'minlash, albatta, zarur.

Agar bu himoya ta'minlanmas ekan jurnalistlarning ommaviy axborot vositalarida ziddiyatlarni yoritish, ommaviy axborot vositalari ro'li yoki jurnalist surishtiruv kabi fuqarolik jamiyatini rivojiga hissa qo'shuvchi omillarning harakati o'z-o'zidan, tabiiy susayib boradi.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligi hamda qonuniylik tamoyillarining soʻzsiz taʼminlanishi inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning muhim kafolatidir.²

Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 15-moddasiga koʻra, Oʻzbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi soʻzsiz tan olinadi.

Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 16-moddasiga koʻra, birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.

Konstitutsiyaning ustunligi bu – qonun va qonunosti hujjatlarining Konstitutsiyadan ustun boʻla olmasligi. Yaʼni birorta qonun yoki ularning normalari Konstitutsiyaga zid boʻlmasligi tushuniladi. Qabul qilinadigan har bir hujjat Konstitutsiyani va uning normalarini oʻzgartirishni emas, ularni amal qilishini taʼminlashi zarur. Bu Konstitutsiyaviy qoida sifatida belgilab qoʻyilgan boʻlib, Konstitutsiyada mavjud barcha normalarga taalluqli, shuningdek, konstitutsiya, qonun va qonunosti hujjatlarining oʻzaro nisbatida oʻz aksini topadi.

Demak, Konstitutsiya ustunligi deganda, Konstitutsiyaning norma va qoidalari boshqa har qanday qonun va qonunosti hujjatlaridan yuqori turishi shart.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 67-moddasiga koʻra, ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning toʻgʻriligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar.

Ommaviy axborot vositalari bilan bogʻliq ijtimoiy munosabatlar Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 81-moddasiga koʻra, Konstitutsiyaning 15-16-moddasidagi Konstitutsiyaviy qoidalar asosida tartibga solinishi kerak.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 81-moddasida, “ommaviy axborot vositalari axborotning toʻgʻriligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar”, deb belgilab qoʻyilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 15-16-moddalarida Konstitutsiyaning ustunligi konstitutsiyaviy qoida sifatida oʻrnatilgan. Demak, ommaviy axborot vositalari oʻzi tarqatgan axborotning toʻgʻriligi uchun belgilangan tartibda javobgarlik muqarrar. Alohida holatlar Bosh qomusimizda belgilab oʻtilmagan yoki qonun va qonunosti hujjatlariga xavola qilinmagan.

Biroq, “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish toʻgʻrisida”gi qonunda Konstitutsiyasi 15-16-moddalaridagi konstitutsiyaning ustunligi prinsipi buzilayotganligini koʻrishimiz mumkin.

“Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish toʻgʻrisida”gi qonunning 15-moddasida jurnalistning javobgarligi masalasi aks etgan boʻlib, jumladan qonunning ikkinchi qismida qaysi holatlarda jurnalist javobgar boʻlmasligi sanab oʻtilgan.

Jurnalist ommaviy axborot vositalarida haqiqatga mos kelmaydigan materiallarni tarqatganlik uchun quyidagi hollarda javobgar boʻlmaydi:

- agar bu maʼlumotlar rasmiy xabarlardan, normativ-huquqiy hujjatlardan yoki rasmiy statistika hisobotlari maʼlumotlaridan yoxud axborot agentliklari yoki davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining matbuot xizmatlari orqali, shuningdek ularning rasmiy veb-saytlaridan olingan boʻlsa;
- agar bu maʼlumotlar oldindan yozib olinmasdan efirga beriladigan mualliflik chiqishlarida mavjud boʻlsa yoki chiqishlarning soʻzma-soʻz takrorlanishi (stenografiya, audio-, videoyozuvi) boʻlsa.

² Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. - T.: ”Oʻzbekiston”, 2018, 2-tom, 39-bet.

Eng avvalo, "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonun qabul qilishda Konstitutsiyaning ustuvorligi prinsipidan kelib chiqib qabul qilinmagan. Chunki, qonun va qonunosti hujjatlari Konstitutsiyaga zid bo'lmasligi, aksincha Konstitutsiya asosida va uni ijro qilish uchun qabul qilinadi.

Bu holatda, agar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 81-moddasi birinchi qismi quyidagi tarzda talqin qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi: "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Qonunda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasnodir".

Bunda, "Qonunda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasnodir" tushunchasi orqali qonunga, "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonunga yoki boshqa ommaviy axborot vositalari faoliyati bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlarga havola bergan bo'lamiz va albatta, Konstitutsiya ustuvorligi prinsipini buzmagani hisoblanamiz.

Nima uchun aynan Konstitutsiyaga o'zgartirishni taklif qilyapmiz?

Eski tahrirdagi "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 15-moddasi quyidagi tarzda talqin qilingan: "Jurnalist o'zi tayyorlayotgan va tarqatayotgan xabarlar hamda materiallarning haqqoniy bo'lishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgardir.

Jurnalist rasmiy xabarlarda bayon etilgan axborotni tarqatganlik uchun javobgar bo'lmaydi". Yangi tahrirda qabul qilingan qonun orqali jurnalistning huquq va erkinliklari kafolatlab qo'yilgan. Chunki jurnalist o'ziga bog'liq bo'lmagan holat yuzasidan javobgarlikka tortilishi, ya'ni, jurnalist ommaviy axborot vositalarida ma'lumotlarni rasmiy xabarlardan, normativ-huquqiy hujjatlardan yoki rasmiy statistika hisobotlari ma'lumotlaridan yoxud axborot agentliklari yoki davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining matbuot xizmatlari orqali, shuningdek ularning rasmiy veb-saytlaridan olingan ma'lumotlarni yoki oldindan yozib olinmasdan efirga beriladigan mualliflik chiqishlarida mavjud bo'lsa yoki chiqishlarning so'zma-so'z takrorlanishi (stenografiya, audio-, videoyozuvi) bo'lsa va bu ma'lumotlar haqiqatga mos kelmasa, buning uchun jurnalistga nisbatan javobgarlik belgilansa, albatta, Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan ijtimoiy adolat prinsipiga to'g'ri kelmaydi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkin: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 81-moddasi birinchi qismi quyidagi tarzda talqin qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi: "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Qonunda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasnodir". "Qonunda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasnodir" tushunchasi orqali qonunga yoki boshqa ommaviy axborot vositalari faoliyati bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlarga havola bergan bo'lamiz. Konstitutsiya ustuvorligi prinsipini ham ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (Normativ-huquqiy hujjatlar):

1. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To'ldirilgan va qayta nashr qilingan ikkinchi nashr. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2020. -400 bet;
2. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. - T.: "O'zbekiston", 2018, 2-tom;
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
4. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi;
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi;
6. "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi qonun;

7. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonun;
8. "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi qonun;
9. "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonun;
10. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonun;
11. "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun;
12. "Reklama to'g'risida"gi qonun;
13. "Davlat sirlarini saqlash to'g'risida"gi qonun;
14. Jakhongir B. CRIMINAL LIABILITY OF MINORS IN SOME DEVELOPED COUNTRIES AND IMPLEMENTATION OF ADVANCED EXPERIENCE IN THIS FIELD TO NATIONAL LEGISLATION //TSUL LEGAL REPORT. – 2021. – C. 134.
15. Threats to judicial independence: reflections on the US experience B Kosimov - TSUL Legal Report International electronic scientific ..., 2020
16. Jakhongir, K. (2023). LEGAL GUARANTEES OF THE USE OF THE INTERNET BY INDIVIDUALS. World Bulletin of Management and Law, 18, 33-37.
17. Jaxongir, Q. (2022). INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI. SIYOSATSHUNOSLIK, HUQUQ VA XALQARO MUNOSABATLAR JURNALI, 1(7), 26-30. Jaxongir, Q., & Zokirjon, O. G. L. (2022).
18. Mahalliy ijro hokimiyat organlari boshqaruv tizimini isloh etish masalalari. Ta'lim fidoyilari, 13, 51-54.
19. Hoshim ug'li, M. F. (2023, May). PROSPECTS OF INTRODUCTION OF PRIVACY PROTECTION SYSTEM IN VIRTUAL SPACE. In E Conference Zone (pp. 27-31)
20. Fakhriddin, M. (2023). STAGES OF DEVELOPMENT OF THE CONSTITUTIONAL GUARANTEES OF THE RIGHT TO PRIVACY IN UZBEKISTAN. World Bulletin of Management and Law, 19, 67-72.
21. Fakhriddin, M. (2023). LEGAL MECHANISMS FOR ENSURING PRIVACY IN THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE. World Bulletin of Management and Law, 25, 9-13.